

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Abdumanopov Muxammadsodiq Muxammadyusub o‘g‘li


Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, tarkibiy qismlari va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta‘lim talablari doirasida bo‘lajak pedagoglarning fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kognitiv kompetentlik, kognitiv jarayonlar, pedagogik ta‘lim, refleksiv fikrlash, kreativlik, metodik tayyorgarlik.

Zamonaviy pedagogikada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida kognitiv kompetentligini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda motivatsion yondashuv samaradorlikni oshiruvchi metodik asoslardan biri sifatida tan olinadi. Kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda tamoyillarga rioya qilish, ta‘lim mazmuni va metodlarini maqsadli yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot muammosining samarali yechimini topish, mazkur jarayonning mohiyatini yorituvchi modelni shakllantirishda talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan tamoyillarni belgilash muhim ahamiyatga ega (1-rasm):



1-rasm. Talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan tamoyillar

Quyida talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan tamoyillarning mohiyati yoritiladi:

20-May, 2026-yil

1. Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili. Bu tamoyil bo‘lajak o‘qituvchining individual intellektual ehtiyojlari, o‘rganish uslubi, motivlari va o‘zini anglash darajasini hisobga olishni talab qiladi.

- Talabning o‘z fikrini ifodalashi, tanqidiy fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kognitiv faoliyatni rag‘batlantiradi.

- Vygotskiy L.S. ta’limni “yaqin rivojlanish zonasi”ga mos ravishda tashkil etishni taklif etadi, bu esa shaxsiy rivojlanishga tayanch bo‘lishni bildiradi.¹

2. Ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash tamoyili. Ryan va Decining "O‘zini o‘zi aniqlash nazariyasi" (Self-Determination Theory)ga ko‘ra, insonning ichki motivlari – bilim olishga qiziqish, yutuqqa erishish, ma’naviy o‘sish – eng barqaror o‘quv harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi [Ryan & Deci, 2000].

- Mustaqil fikrlashga, izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ichki motivatsiyani oshiradi;

- Tashqi baho o‘rniga o‘z-o‘zini baholashga urg‘u berish foydali bo‘ladi.²

3. Faollik va o‘zlashtirishning faol ishtirokchisi bo‘lish tamoyili. Bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim jarayonining passiv emas, faol ishtirokchisi bo‘lishi kerak. Bu esa kognitiv kompetentlikning muhim komponentlari – axborotni izlash, tahlil qilish, muammo yechish, baholash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

- Bruner ta’lim konstruktivistik yondashuv orqali, bilimni faol izlanish va konstruktsiyalash asosida o‘zlashtirish kerakligini ta’kidlaydi.³

4. Refleksiya va metakognitsiyaning rivojlanishi tamoyili. Kognitiv kompetentlik faqat bilim emas, balki o‘z-o‘zini anglash, o‘z fikrlarini nazorat qilish va o‘rganish jarayonini boshqarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

- Talabalarga o‘z bilim darajasini baholash, o‘zgarishlarni kuzatish va faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini berish lozim.

- Bu tamoyil metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.⁴

5. Muammoli o‘qitish tamoyili. Muammoli vaziyatlarni qo‘llash orqali talabani mustaqil tahlil, taxmin qilish, qaror qabul qilishga undash – kognitiv faoliyatni kuchaytiradi.

- Davydov va Elkonin bu metod orqali fikrlashning yuqori darajasini shakllantirish mumkinligini asoslab berishgan.⁵

Bo‘lajak o‘qituvchilar kognitiv kompetentligini motivatsion yondashuv asosida rivojlantirishda tamoyillarga tayangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish zarur. Ushbu

¹ Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

² Ryan, R.M., & Deci, E.L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social

² Ryan, R.M., & Deci, E.L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68–78. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68>

³ Bruner, J.S. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Harvard University Press.

⁴ Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>

⁵ Davydov, V.V. (1996). *Teoriya razvivayushchego obucheniya*. Moskva: INTOR.

20-May, 2026-yil

tamoyillar orqali shaxsiy motivatsiya, mustaqil fikrlash, refleksiya va faoliyatga yo‘naltirilgan ta‘lim bilan uyg‘unlashgan pedagogik muhit yaratiladi.

Talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish modelining asosiy komponenti oliy ta‘lim samaraliligini ta‘minlovchi pedagogik shart-sharoitlar hisoblanadi. Bu o‘rinda “shart-sharoit” tushunchasini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “sharoit” va “shart” tushunchalari alohida-alohida ifodalangan bo‘lib, ular quyidagi ma‘nolarni anglatadi: sharoit – biror narsaning voqealanishiga, bo‘lishiga ta‘sir etuvchi holat, vaziyat, imkoniyat;⁶ shart – taqozo etuvchi narsa.⁷ Ushbu ta‘riflarga tayangan holda “shart-sharoit” tushunchasining mohiyatini quyidagicha talqin etish mumkin: shart-sharoit – biror narsaning voqealanishi, sodir bo‘lishi uchun talab qilinadigan, unga ta‘sir etadigan holat, narsa.

Rossiyalik tilshunos S.I.Ojegovning “Словар русского языка: около 53000 слов” (“Rus tili lug‘ati: 53000 ga yaqin so‘z”) asarida “shart-sharoit” tushunchasi negizida uch xil talqin etilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ular:

- 1) undan nimadir taqozo etiladigan vaziyat;
- 2) hayotning, faoliyatning qaysidir sohasi bo‘yicha o‘rnatilgan tartib-qoida, shartlar;
- 3) unda nimadir sodir bo‘ladigan vaziyat, holat.⁸

Demak, “sharoit o‘zida obyektlar majmuining mavjud elementlarini namoyon etadi, ularning mavjudligi esa tegishli hodisaning sodir bo‘lishini ta‘minlaydi hamda ushbu kategoriya predmetning borliqda sodir bo‘ladigan hodisalarga munosabatini yoritadi. Zero, usiz hodisaning o‘zi mavjud bo‘lmaydi; pedagogik shart-sharoit deganda natijasi qo‘yilayotgan vazifalarni samarali hal qilish imkoniyatiga ega o‘qitish va tarbiyalash mazmuni, shakli, metodi va vositalarining elementlarini tanlash, qurish va amalda qo‘llash bo‘lgan ta‘lim va tarbiya jarayonining holati tushuniladi”.⁹

Rossiyalik olim V.I.Andreyev esa o‘z tadqiqotlarida “pedagogik sharoit-sharoit” tushunchasining talqiniga to‘xtalib o‘tadi. Muallifning fikriga ko‘ra, pedagogik shart-sharoit – natijasi belgilangan didaktik maqsadga erishish uchun o‘qitish mazmuni, metodlari, shuningdek, tashkiliy shakllari elementlarini maqsadli tanlash, qurish va amalda qo‘llashni ifodalovchi ta‘lim jarayonining holati.¹⁰

O‘z tadqiqotlarida yana bir rossiyalik olim O.V.Shteymark shart-sharoit tegishli hodisaning sodir bo‘lishiga olib keluvchi obyektlar majmuining mavjud kompetentligini ifodalashini ta‘kidlaydi. Muallifning qayd qilishicha, aynan mana shu kategoriya (belgi va

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5 жилдди. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 549.

⁷ Ўша манба – Б. 550.

⁸ Ожегов С.И. Словарь русского языка: около 53000 слов / Под общ.ред.проф. Л.И.Скворцова. – 24-е изд., испр.– М.: ООО “Изд-во Оникс”, 2007. – С. 588

⁹ Педагогические условия // http://www.zpu-journal.ru/zpu/2008_1/Shteymark.pdf.

¹⁰ Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань:КГУ, 1996. – С. 568.

20-May, 2026-yil

bog‘lanishlarni ifodalovchi tushuncha) hodisaning borliqqa munosabatini ifodalaydiki, busiz u mavjud bo‘lmaydi.¹¹

Tadqiqotchi I.A.Eshmamatovning fikricha, shart-sharoit obyektlar majmuasi (predmetlar, ularning holati, o‘zaro ta’siri) bo‘lib, ularning mavjudligidan mazkur hodisaning zarurligining tarkibi, mazmuni kelib chiqadi. Agarda barcha zarur shart-sharoitlar ularning umumiy jihatiga ko‘ra tanlanmasa, shart-sharoit har safar yuza beradigan hodisaning xususiy jihatlaridan kelib chiqqan holda holda tanlanadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.¹²

Mazkur g‘oya “shart-sharoit” tushunchasi negizida muayyan hodisa (masalan, pedagogik hodisa)ning mavjudligi kelib chiqadigan ta’limiytarbiyaviy jarayon majmuaviy choralarning ahamiyatli tarkibiy qismini anglash taqozo etiladi. Zarur va yetarli shart-sharoit – maqsadga erishishning kafolati bo‘lib, usiz natijasiga erishib bo‘lmaydi.¹³

Ayni o‘rinda O.V.Shteymark pedagogik shart-sharoitlar xususida ham to‘xtalib o‘tadi: pedagogik shart-sharoit ta’lim va tarbiya jarayonining holati bo‘lib, u oldinga qo‘yilgan pedagogik vazifalarni hal qilishga imkon beradigan o‘qitish va tarbiyalashning mazmuni, shakli, metod va vositalari elementlarini tanlash, uning asosida loyihalarni shakllantirish hamda ulardan foydalanishning natijasi sanaladi.

A.X.Xushbaxtov ilmiy izlanishlarni olib borish jarayonida rus olimlarining tadqiqotlarida pedagogik shart-sharoit sifatida quyidagi guruhlar qayd etilganligini aytadi: tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar (V.A.Belikov, YE.I.Kozireva, S.N.Pavlov, A.V.Sverchkov va b.); psixologik-pedagogik shart-sharoitlar (N.V.Juravskiy, A.V.Krugliy, A.V.Lisenko, A.O.Malixin va b.); didaktik shart-sharoitlar (M.V.Rutkovskaya va b). Mavjud tadqiqotlar natijalarini tahlil qilar ekan, A.X.Xushbaxtov pedagogik shart-sharoitlarining yuqorida qayd etilgan guruhlari sirasiga bugungi kun talablarida kelib chiqqan holda quyidagi ikki omilni ham qo‘shish zarurligini ko‘rsatadi: 1) zamonaviy ta’limiy va pedagogik texnologiya hamda resurslardan foydalana olish; 2) zamonaviy sharoitda ta’lim va tarbiyaning imkoniyatlari o‘zida zarur.¹⁴

Tadqiqotchi M.Abdumannopov tadqiqot ishida “Oliy ta’limda talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish shart-sharoitlari ularda mazkur sifatni hosil qilish, mustahkamlash imkoniyatini yaratuvchi obyektiv (moddiy asos – qulay ta’lim muhiti, moddiy-texnik (AKT, jihozlangan auditoriya, kompyuter dasturlari), didaktik ta’minot (fanlardan adabiyotlar, metodik ishlanmalar) va subyektiv (ma’naviy asos – bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim darajasi, kasbiy mahorati, tajribasi; innovatsion ta’lim

¹¹ Штеймарк О.В. Педагогические условия эффективного использования компьютерных технологий в педагогическом процессе // http://www.zpu-journal.ru/zpu/2008_1/Shteymark.pdf

¹² Эшмаатов И.А. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогларнинг ахборот коммуникатив компетентлигини ривожлантиришнинг назарий педагогик асосларини шакллантириш: п.ф.б.ф.д. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 64.

¹³ Эшмаатов И.А. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогларнинг ахборот коммуникатив компетентлигини ривожлантиришнинг назарий педагогик асосларини шакллантириш: п.ф.б.ф.д. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 64.

¹⁴ Хушбахтов А.Х. Терминология “педагогические условия” // Ж.Молодой ученый. – Казань: 2015. - №23. – С. 1020.

20-May, 2026-yil

texnologiyalarini o‘zlashtirish ehtiyojiga egaligi; malakaviy amaliyot jarayoni va amaliyotdan keyingi faolligi, obyektiv xarakterdagi monitoring natijalari) shart-sharoitlarni e’tirof etish mumkin”ligini ta’kidlab o‘tgan.¹⁵

Bo‘lajak pedagoglarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Pedagogik shart-sharoitlarning komponentlar bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladigan farqlari shartli ravishda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (1-jadvalga qarang). Bu esa ma’lum bir pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish alohida komponentlarni tarkib toptirishda o‘zining aniq maqsadiga ega bo‘lishini ko‘rsatdi.

1-jadval

Pedagogik shart-sharoitlarning kognitiv kompetentlik komponentlari bo‘yicha farqlarining namoyon bo‘lishi

Komponentlari	Kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari
Motivatsion-qadriyatli, bilishga doir	Ta’lim mazmunini talabalarda individual kognitiv strategiyalarni tarkib toptirishga xizmat qiluvchi va axborotlarni taqdim etishning chizma-tasviriy modellariga doir o‘quv materiallarini bilan boyitish zarur.
Jarayonli-faoliyatga doir, reflektiv-baholovchi	Individual kognitiv strategiyalarni tanlash va axborotlarni taqdim etishning chizma-tasviriy modelini qo‘llash vositasida talabalarni yangi bilimlar hamda samarali faoliyat tajribasini o‘zlashtirishga jalb etish lozim.

Mazkur shart-sharoitlarni joriy etish pedagogdan o‘z faoliyati hamda talabalarga nisbatan munosabatini (pozitsiyasini) ijobiy tomonga o‘zgartirish, jamoada tegishli psixologik mikromuhitni yaratish, o‘quv-tarbiya jarayonining samarali tashkiliy shakllari, metod, usul, vositalarini tanlash va qo‘llash imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdumannopov M.M. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2024. – B. 78.
2. Bruner, J.S. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Harvard University Press.
3. Давидов, В.В. (1996). Теория развивающего обучения. Москва: ИНТОР.
4. Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>

¹⁵ Abdumannopov M.M. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2024. – B. 78.

20-May, 2026-yil

5. Ryan, R.M., & Deci, E.L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68–78. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68>
6. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань: КГУ, 1996. – С. 568.
8. Ожегов С.И. Словарь русского языка: около 53000 слов / Под общ.ред.проф. Л.И.Скворцова. – 24-е изд., испр.– М.: ООО “Изд-во Оникс”, 2007. – С. 588
9. Педагогические условия // http://www.zpu-journal.ru/zpu/2008_1/Shteimark.pdf.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 549.
11. Хушбахтов А.Х. Терминология “педагогические условия” // Ж.Молодой ученый. – Казань: 2015. - №23. – С. 1020.
12. Штеймарк О.В. Педагогические условия эффективного использования компьютерных технологий в педагогическом процессе // http://www.zpu-journal.ru/zpu/2008_1/Shteimark.pdf
13. Эшмаматов И.А. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогларнинг ахборот коммуникатив компетентлигини ривожлантиришнинг назарий педагогик асосларини шакллантириш: п.ф.б.ф.д. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 64.